

**THE ROLE OF THE SANGIRTEPA, PODAYOTOQ, AND UZUNQIR
ARCHAEOLOGICAL SITES IN THE URBAN DEVELOPMENT OF ANCIENT
NAUTAKA (KESH) AND RESEARCH CONDUCTED AT THESE SITES****Xushvaqtova Lobar Oqbutayevna**

Chief Specialist, Shahrisabz State Museum-Reserve

Annotation

In this state, the history of research is analyzed, the results of excavations and its chronological stages of three large archaeological monuments, located in the Shakhrisabz oasis (Shorobsay oasis) and the neot'emlemoy chastyu ancient nautical urban system — Sangirtepa, Podayotaktepa and Uzunkir. V state rassmatrivayutsya issledovaniya, provennye KATE (Pozdney archeologicheskoy i topograficheskoy ekspeditsiei) and academician R. Süleymanov, a takje tot fact, with three objects functioning as a citadel (acropolis), a city and a religious center (temple) from the IX-VIII centuries AD. po IV century n.e., na osnove archeologicheskikh istochnikov.

Key words

Nautaka, Kesh, Sangirtepa, Podayotoktepa, Uzunkir, Shorobsoy, Acropolis, Zoroastrian temple, KATE, Akhmenidov period, Kushan culture.

**QADIMGI NAUTAKA (KESH) SHAHARSOZLIGIDA SANGIRTEPA,
PODAYOTOQ VA UZUNQIR ARXEOLOGIK YODGORLIKLARINING
O'RNI VA ULARDAGI TADQIQOTLAR****Xushvaqtova Lobar Oqbutayevna****“Shahrisabz” davlat muzey qo'riqxonasi Bosh mutaxassisi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shahrisabz vohasi (Sho'robsoy vohasi)da joylashgan va qadimgi Nautaka shahar tizimining tarkibiy qismlari hisoblangan uch yirik arxeologik yodgorlik — Sangirtepa, Podayotoqtepa va Uzunqir ob'ektlarining tadqiqot tarixi, qazishma ishlari natijalari hamda ularning xronologik bosqichlari tahlil

qilinadi. Maqolada KATE (Kesh arxeologik-topografik ekspeditsiyasi) va akademik R. Sulaymonov rahbarligida o'tkazilgan tadqiqotlar, miloddan avvalgi IX–VIII asrlardan milodiy IV asrgacha bo'lgan davrda ushbu uchlikning sitadel' (akropol'), shahar va diniy markaz (ibodatxona) sifatida faoliyat yuritgani arxeologik manbalar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Nautaka, Kesh, Sangirtepa, Podayotoqtepa, Uzunqir, Sho'robsoy, Akropol, Zoroastrizm ibodatxonasi, KATE, Ahamoniylar davri, Kushon madaniyati.

Аннотация: В данной статье анализируется история исследований, результаты раскопок и их хронологические этапы трех крупных археологических памятников, расположенных в оазисе Шахрисабз (оазис Шоробсай) и считающихся неотъемлемой частью древней наутакской городской системы — Сангиртепа, Подаётактепа и Узункир. В статье рассматриваются исследования, проведенные КАТЕ (Поздней археологической и топографической экспедицией) и академиком Р. Сулеймоновым, а также тот факт, что эти три объекта функционировали как цитадель (акрополь), город и религиозный центр (храм) с IX–VIII веков до н.э. по IV век н.э., на основе археологических источников.

Ключевые слова: Наутака, Кеш, Сангиртепа, Подайотоктепа, Узункир, Шоробсой, Акрополь, зороастрийский храм, КАТЕ, период Ахеменидов, кушанская культура.

Markaziy Osiyodagi eng qadimgi shahar sivilizatsiyalaridan biri hisoblangan Shahrissabz vohasi ilk antik davrda Nautaka, keyinchalik esa Kesh nomi bilan mashhur bo'lgan. Vohaning janubi-g'arbiy qismida, Sho'robsoy sohillari bo'ylab bir-biridan 3–5 kilometr masofada joylashgan Uzunqir, Podayotoqtepa va Sangirtepa yodgorliklari yaxlit kompleks holida qadimgi Nautaka shaharining uch asosiy qismini (tsitadel'/akropol', asli shahar va markaziy ibodatxona) tashkil etgan.

Ushbu yodgorliklarda olib borilgan arxeologik qazishmalar O'zbekistonda shahar madaniyati va davlatchilik ildizlari miloddan avvalgi I ming yillik boshlariga borib qadalishini ilmiy jihatdan isbotlab berdi.

Ushbu maqolaning maqsadi — Sangirtepa, Podayotoq va Uzunqir arxeologik yodgorliklarida o'tkazilgan qazishma ishlari va ulardan olingan osori-atiqalarni chuqur tahlil qilish orqali ilk va rivojlangan antik davr Nautakasining shaharsozlik strukturasini yoritishdan iborat.

Yodgorliklarning o'rganilish tarixi va stratigrafiyasi

Sho'robsoy vohasidagi yodgorliklar ilk bor XX asrning 80-yillari o'rtalarida KATE (Kesh arxeologik-topografik ekspeditsiyasi) a'zosi N.I. Krashennikova tomonidan qayd etilgan va topografik xaritaga tushirilgan. Keyinchalik O'zFA Arxeologiya instituti, akademik R.H. Sulaymonov hamda E. Rahmanov boshchiligidagi tadqiqotchilar ushbu uch yodgorlikda keng ko'lamli stratigrafik shurflar va tizimli qazishma ishlarini olib borishdi. Arxeologik tadqiqotlar natijasida mazkur uch yodgorlik o'rtasida jips funktsional va xronologik bog'liqlik borligi, ular miloddan avvalgi IX–VIII asrlardan boshlab yagona shahar organizmi sifatida rivojlangani aniqlandi.

Uzunqir — qadimgi Nautakaning shahar qismi (m.a. IX–IV asrlar) arxeologik tuzilishi va maydoni. Uzunqir shahar xarobasi — Sho'robsoyning so'l sohilida joylashgan bo'lib, umumiy maydoni 10 gektardan ortiq hududni egallaydi. Ushbu yodgorlik qadimgi Nautakaning asosiy shahar (shahriston) va aholi zich yashagan qismi hisoblangan.

Qazishmalar va topilmalar, mudofaa devori va strategiyasi: Arxeologik qazishmalar davomida Uzunqir atrofi qalinligi 4-5 metrli xom g'isht va paxsadan tiklangan bahaybat mudofaa devori bilan o'ralgani aniqlandi. Devor tagidan olingan sopol namunalari uning miloddan avvalgi VIII–VII asrlarda qurilganidan dalolat beradi.

Ahamoniylar va Ellinistik qatlam: Devorlar bo'ylab o'tkazilgan shurflar Ahamoniylar (m.a. VI–IV asrlar) va Aleksandr Makedonskiy davriga oid jangovar qazishmalar trace'larini ko'rsatdi.

Moddiy madaniyat va Kulolchilik: Pastgi qatlamlardan rangsiz, lekin sirti silliqlangan qo'lda yasalgan loy idishlar topilgan.

Yuqori qatlamlardan esa kulolchilik charxida ishlangan, jumladan, angob bilan qoplangan shtampli sopol va ko'zalar uchraydi.

Podayotoqtepa — aktiv akropolʼ va himoya qal'asi joylashuvi va qazishma natijalari: Podayotoqtepa Sho'robsoyning tik va baland qirg'og'ida joylashgan bo'lib, maydoni 270x74 metrni tashkil etadi. U shaharning eng yuqori himoyalangan qismi — Akropolʼ (Tsitadelʼ) vazifasini o'tagan. Qazishmalarda aniqlangan 4 ta qurilish gorizonti

Arxeologlar Podayotoqt tepaning g'ishtli devorlarini kesib o'rganish jarayonida to'rtta asosiy madaniy gorizontni aniqladilar:

1. I bosqich (m.a. IX–VIII asrlar): Ilk manzilgoh davri. Bu yerdan basiq va tosh mehnat qurollari, sopol bo'laklari topilgan.

2. II bosqich (m.a. VI–IV asrlar): Ahamoniylar imperiyasi davri. Podayotoqt tepada mustahkam qal'a devorlari va harbiy garnizon joylashgan kazarma tipidagi xonalar topilgan.

3. III bosqich (m.a. IV–III asrlar): Ellinistik (Yunon-Baqtriya) davri. Makedonskiy yurishlari va undan keyingi davrda ham ushbu akropolʼ o'z ahamiyatini yo'qotmagan va istehkom sifatida xizmat qilgan.

4. IV bosqich (m.a. II – milodiy I asrlar): Qang' va Ilk Kushon davriga oid turar-joy hamda tanga topilmalari mavjud. Muhim arxeologik xulosalar shundan iboratki Aleksandr Makedonskiyning m.a. 328–327 yillarda Nautakada qishlashi aynan

Podayotoqtepa va uning atrofidagi mustahkamlangan harbiy baza bilan bog'liqligi manbalar va qazishmalar tahlilida o'z tasdig'ini topgan.

Sangirtepa — markaziy osiyoning eng qadimgi zoroastrizm ibodatxonasi. Sangirtepa Uzunqir va Podayotoqtepadan 3 km uzoqlikda joylashgan bo'lib, qadimgi Nautakaning yagona diniy-ma'naviy markazi (ibodatxonasi) vazifasini bajargan. Arxeologik qazishmalar va Markaziy mehrob haqida uch xil bilimlar shulardan iboratki:

1. Ibodatxona me'morchiligi: Sangirtepada olib borilgan keng ko'lamli qazishmalar natijasida qadimgi olov ibodatxonasi majmuasi ochib o'rganildi.

2. Olov mehrobi va Zoroastrizm unsurlari: Ibodatxonaning markaziy zalida xom g'ishtdan tiklangan, loy bilan suvalgan muqaddas olov mehrobi (altarъ) topilgan. Bu topilma Markaziy Osiyodagi eng qadimiy Zoroastrizm ibodatxonalaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

3. Sarkofag va odonlar: Ibodatxona atrofida suyak solinadigan maxsus idishlar (ossuariylar) va kulollik buyumlari topilgan bo'lib, bu aholining dafn marosimlari va diniy tasavvurlari haqida bebaho ma'lumot beradi.

Uch yodgorlikning arxeologik korrelyatsiyasi va shahar modeli Arxeolog R. Sulaymonov va tadqiqotchilar xulosasiga ko'ra, Sho'robsoy bo'yidagi bu uch ob'ekt alohida qishloqlar emas, balki yagona antik shahar strukturasidir:

QADIMGI NAUTAKA ShAHRI		
PODAYoTOQTEPA	UZUNQIR	SANGIRTEPA
(Akropolъ)	(Asosiy Shahrison)	(Markaziy Ibodatxona)
Harbiy qal'a	Aholi yashash joyi	Diniy-ma'naviy
Hukmdor qarorgohi	Hunarmandchilik	Markaz
Mudofaa devori	Savdo maydoni	Olov mehrobi

Bunday uch bo'limli shaharsozlik modeli (Tsitadelъ – Shahriston – Ibodatxona) Markaziy Osiyodagi eng qadimgi Afrasiyob (Samarqand) va Yerqo'rg'on (Qarshi) kabi yirik shahar markazlarining tuzilishiga to'liq mos keladi.

Sho'robsoy vohasida o'tkazilgan arxeologik qazishmalar Shahrisabz vohasidagi ilk shahar madaniyati haqida quyidagi muhim xulosalarni beradi:

1. Ilk xronologiya: Podayotoq, Uzunqir va Sangirtepa yodgorliklari Shahrisabz shaharining yoshi kamida 2700-2800 yilga borib taqalishini moddiy jihatdan isbotladi.

2. Yagona shaharsozlik tizimi: Bu uch yodgorlik antik davr Nautakasining bo'linmas qismlari (Akropolъ, Shahar, Ibodatxona) bo'lib xizmat qilgan.

3. Muhofaza va turizm: Bugungi kunda ushbu ochiq osmon ostidagi xom g'ishtli arxeologik ob'ektlarni konservatsiya qilish va sayyohlar uchun tomosha galereyalarini (naves) barpo etish, shuningdek, ularni muhofaza hududiga aylantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Кабанов С.К. “Согдийский керамический комплекс из Шахрисабза (Античный период).” // Советская археология, № 2, 1968.

2. Крашенинникова Н.И. “К топографии древней Наутаки.” // Известия АН УзССР, Серия общест. наук, № 4, 1986.

3. Rahmanov E. “Shahrisabz vohasining antik va ilk o'rta asrlar arxeologik yodgorliklari.” – Toshkent: Akademiya, 2008.

4. Сулаймонов Р.Х. “Древний Кеш: археологические этюды истории города.” – Ташкент: Фан, 2000.

5. Филанович М.И. “Древний Согд в системе международных связей античного периода.” – Ташкент: Фан, 2004.

6. Shahrisabz davlat muzey-qo'riqxonasi fond materiallari. “Arxeologiya bo'limi hisobotlari (Uzunqir, Sangirtepa, Podayotoq manzilgohlari).” – Shahrisabz, 2020–2024.